

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Холбеков Абугани ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
2. Султанова Эътибор МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
3. Латипова Нодира МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
4. G'afforova Mavlyuda JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
9. Mannanova Nilufar BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
11. Radjabova Aziza XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
12. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
13. Ergasheva Mehribon “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
14. Mengliyev Atabek REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107

15. Джураева Анна, Сеитов Азамат СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
16. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
17. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
19. Toshbo‘riyeva Sevara TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
20. Mannanov Erkin ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
21. Артыкова Алёна ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
22. Zaitova Sitara O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
23. Raximjonova Gulzira DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
24. Ro‘yiddinova Aisha O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xolbekov Abdugani,

Sotsiologiya fanlari doktori,

O`zMU Sotsiologiya kafedrası professori

e-mail: kholbekovabdugani@gmail.com

Axmedov Tuychi,


Siyosiy fanlar doktori, professor,

Oliy talimni rivojlantirish

tadqiqotlari markazi boshqarma boshligi

e-mail: tuyciyahmedov510@gmail.com

ИЖТИМОЙ ХАВФЛАР ШАРОИТИДА МАХАЛЛАНING РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111603>

ANNOTATSIYA

Maqolada mahalla fenomeni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Shu asosda mualliflar mahalla institutining faoliyat omillarini ko'rib chiqadi. Ularning fikricha, bu jamoat hayotining o'zgarishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maqolada shuningdek, aholi zaif qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash yo'llari ochib beriladi. Bandlik aholining turmush darajasini oshirishdagi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi; ushbu mexanizm orqali, mualliflar fikricha, jamoat hayotida ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash mumkin. Kishilarning ijtimoiy faolligi ham amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minlaydi. Maqolada statistik ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu O'zbekistondagi ijtimoiy hayotdagi islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida mahalla institutining samaradorligini oshirish masalasiga empirik yondashuvni ta'minlaydi. Bunda ta'kidlanadiki, mahalla zamonaviy sharoitda nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga, balki ba'zi vaziyatlarda odamlarning og'ir hayot sharoitlarini yengishga yo'naltirilgan birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim.

Kalit so'zlar: inson, ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy himoya, jamoatchilik nazorati, turmush darajasi, bandlik, ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy faollik, raqamli mahalla.

Холбеков Абдугани,

Профессор Национального университета Узбекистана, доктор социологических наук,

e-mail: kholbekovabdugani@gmail.com

Ахмедов Туйчи,

Доктор политических наук, профессор,

Начальник управления центра исследований

развития высшего образования

e-mail: tuyciyahmedov510@gmail.com

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МАХАЛЛИ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНЫХ РИСКОВ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется феномен махалли с точки зрения проводимых в стране реформ в социальной жизни общества. Исходя из этого, авторы рассматривают факторы деятельности института махалли. По их мнению, это выступает как важный фактор трансформации общественной жизни. В статье также раскрываются принципы социальной защиты уязвимых слоев населения и пути укрепления социальной солидарности. Занятость трактуется как ключевой механизм в повышении уровня жизни населения. Через этот механизм, по мнению авторов, можно упрочить социальную интеграцию общественной жизни. Социальная активность людей также способствует эффективности проводимых реформ. В статье приводятся статистические данные, что обеспечивает эмпирический подход к проблеме повышения эффективности института махалли в углублении реформ в социальной жизни Узбекистана. При этом отмечается, что махалля в современных условиях должна играть консолидирующую роль, направленную не только на упрочение социальной стабильности в общества, но и преодоление сложных условий жизни людей в определенных ситуациях.

Ключевые слова: человек, социальная солидарность, социальная защита, общественный контроль, уровень жизни, занятость, социальная интеграция, социальная активность, цифровая махалля.

Kholbekov Abdugani,

Professor, National University of Uzbekistan,

Doctor of Sociological Sciences

e-mail: kholbekovabdugani@gmail.com

Akhmedov Tuychi,

Doctor of Political Sciences, Professor, Head of the Department,

Center for Higher Education Development Research,

e-mail: tuychiahmedov510@gmail.com

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE MAHALLA UNDER CONDITIONS OF SOCIAL RISKS**ABSTRACT**

This article examines the phenomenon of the mahalla through the lens of the social reforms currently being implemented in the country. Drawing on this perspective, the authors analyze the operational factors of the mahalla institution, arguing that it constitutes a significant driver of transformation in public life. The article further elaborates on the principles of social protection for vulnerable segments of the population and identifies pathways for strengthening social solidarity. Employment is interpreted as the key mechanism for raising the standard of living; through this mechanism, the authors contend, social integration within public life can be reinforced. The social engagement of citizens likewise contributes to the effectiveness of the reforms being pursued. The article presents statistical data, thereby grounding the discussion of the mahalla institution's increased effectiveness in deepening social reforms in Uzbekistan within an empirical framework. In this context, it is emphasized that the mahalla, under contemporary conditions, must play a consolidating role oriented not only toward strengthening social stability within society, but also toward helping people overcome the hardships of difficult life circumstances in specific situations.

Keywords: individual, social solidarity, social protection, public oversight, standard of living, employment, social integration, social engagement, digital mahalla.

KIRISH

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mahalla instituti davlat va jamiyat hayotida mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Agar avval mahalla asosan an'anaviy jamoat tuzilmasi sifatida qaralgan bo'lsa, bugun u ijtimoiy himoya, iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligi va inson manfaatlarini ta'minlashda islohotlarning bosh tayanchiga aylanmoqda. 2026-yilni yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili", deb e'lon qilinishi uzoq tarixga ega bo'lgan mahallani

har jihatdan yuksaltirish, demokratik-ijtimoiy qadriyatlarni yangi bosqichga olib chiqish, inson qadrini ulug'lash, tinch va xavfsiz tizimni mustahkamlash uchun muhim qadam bo'ldi.

METODOLOGIYA

Jamiyatning ijtimoiy hamkorlikda yashash prinsiplari klassik sotsiologiyaning tub nazariy tizimlari, xususan E.Dyurkgeymning "ijtimoiy birdamlik" konsepsiyasi, K.Marksning ijtimoiy borliq konsepsiyasi, M.Veberning ijtimoiy harakat nazariyasi [4], shuningdek Pitirim Sorokinning sotsiadinamik jarayonlar konsepsiyasiga borib taqaladi [11]. Ammo bugungi kunda sotsiologiya fani mikrosotsial jarayonlarni tahlil qilishda raqamli transformatsiya, ijtimoiy tuzilmalarni va jarayonlarni algoritmik boshqaruv, ijtimoiy beqaror jarayonlar, xususan migratsion jarayonlar dinamikasi va ular keltirib chiqarayotgan ijtimoiy oqibatlarini lokal, regional va global jihatdan tahlillash va prognozlashtirishga yo'naltirilmoqda. Xususan, M.Kastelsning "Tarmoqli jamiyatning vujudga kelishi" asarida [8, – B.1-28], U.Bekning "Risk jamiyati" nomli kitobida [3, – B.19-42] bizning asrimiz sharoitida jamiyatlar doimiy xavflar va risklar voqeligi asnosida yashay boshlaganligi takidlanadi. Bu esa sotsiologiyaning ijtimoiy barqarorlik haqidagi ananaviy tasavvurlaridan chiqishni taqazo qiladi. Biz mazkur nuqtai nazardan mikro darajadagi tuzilmalar, xususan mahallalar ijtimoiy hayotini ham tahlil qilishga qo'llashga harakat qilamiz.

ASOSIY QISM

Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo'lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qo'shni – qo'shniga ko'mak berib yashagan. Biz mana shunday o'ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak. Bugungi kunda jamiyatimizda turli xil fikr va qarashlar bo'lishi tabiiy. Bu – demokratiyaning birlamchi talabi. Ammo, millati, tili va dinidan qat'i nazar, butun el-yurtimizni birlashtiradigan ulug' bir g'oya bor. U ham bo'lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir. Mana shunday buyuk maqsadga erishishda mahalla tizimining o'rni va ta'siri beqiyos. Chunki, mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi" [1].

Shu boisdan, mahallani har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonida mahalla instituti markaziy o'rinni egallamoqda. Mahalla azaldan jamoatchilikni birlashtiruvchi tuzilma bo'lib kelgan bo'lsa, Yangi O'zbekiston sharoitida u ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning muhim institutsional mexanizmiga aylandi.

Bugungi kunda aholining kundalik hayoti, atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina yo'nalishlar mahalla orqali hal etilmoqda. Ular aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, tegishli hududda qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, to'ylar va boshqa marosimlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beradi, atrof-muhitni muhofaza etadi, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini o'tkazadi, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantiradi, guzarlar barpo etadi, kommunal to'lovlarni to'lanishiga ko'maklashadi, kam ta'minlangan yoshlarning nikoh tuzishida va to'y tadbirlarini o'tkazishida moddiy yordam ko'rsatadi, oilaviy tadbirkorlik subyektlarini bankdan kredit olishiga kafil bo'ladi va hokazo [2].

Darhaqiqat, mahalla – O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim instituti. Aynan mahalliy hokimiyat vakolatlarini bir qismi ushbu institutga olib berilgani, uning ahamiyati oshib borayotganidan dalolat beradi. 2026-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi taxminan 37,7 million nafarni tashkil etmoqda. Mamlakat aholisining katta qismi mahallalarda istiqomat qiladi va aynan shu tuzilma orqali ijtimoiy himoya, bandlik hamda aholining turmush darajasini yaxshilash ishlari amalga oshirilmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromad 21,8 million so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda mahallalar kesimida amalga oshirilayotgan maqsadli ijtimoiy dasturlarning samarasini ham ko'rsatadi [5].

Prezident Sh.Mirziyoev o'z chiqishlaridan birida: "Odamlarning ishi yurishishi mahallalardagi sharoitga ham bog'liq", deb ta'kidlagan [1]. Bu g'oya amalda mahalla tizimi orqali hayotga tatbiq etilmoqda. 2025 yilda 5 million aholi daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan

4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla "kambag'allikdan holi" hududga aylandi. Kambag'al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog'chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bu yildan boshlab, 208 ta bog'chada birinchi marta inklyuziv ta'lim tizimi joriy etildi. O'zbekistonda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi. Kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning yangi tizimi yo'lga qo'yildi va ularni mahalladagi "yettilik"ning o'ziga berilishi natijasida 8,5 milliondan ziyod odam kambag'allikdan chiqdi, ishsizlik 2 karra qisqardi. Natijada uch yil oldin kambag'allikni 2026-yil yakuni bilan 2 karra qisqartirishga erishildi [1].

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalq bilan muloqot qilish, murojaatlar bilan ishlash va aholi muammolarini hal etish sohasida yangi davr boshlandi. Xususan, "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili asosida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mutasaddilarning xalq bilan muloqotini yo'lga qo'yish, murojaatlar bilan ishlash sifatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda[9]. Ushbu jarayonda, ya'ni aholi murojaatlari bilan ishlash va ular bilan muloqot qilishda mahallaning beqiyos hissasini ta'kidlab o'tish kerak.

"Mahalla yettiligi"ning har bir a'zosi o'z yo'nalishi bo'yicha mas'ul sifatida fuqarolarga ko'mak bersa, shubhasiz mahalladoshlari hurmatini, ishonchini qozonadi, ular qalbida shukronalik hissi paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Ilgari mahalla tizimi yetarli mablag', vakolat va mustaqil imkoniyatga ega bo'lmagan. Shu sababli mavjud muammolar, ko'plab masalalar o'z vaqtida hal etilmay qolgan. Murojaatlar yechim topishi uchun yuqori tashkilotlarga yuborilgan. Bugun esa Prezidentimizning tashabbusi bilan mahalla chinakam o'zini-o'zi boshqarish organiga aylandi. Mahallalarga ajratilgan moliyaviy ko'mak, soliq tushumlarining ma'lum qismi mahalla hisobida qolishi orqali hududlarni rivojlantirish imkoniyati ancha kengaydi, infratuzilma yangilanmoqda, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga manzilli yordamlar ko'rsatilmoqda [10].

Axborot-texnologiyalarining rivojlanishi mahalla kabi tuzilmalar faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qildi. Raqamlashuv jarayoni so'nggi yillarda "Raqamli mahalla" va "Mahalla balansi" axborot tizimlarining joriy etilishi mahalladagi real holatni aniq ko'rish imkonini bermoqda. Ushbu platformalar orqali aholi soni, xonadonlar, ishsizlar, yoshlar va xotin-qizlar bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilinib, qarorlar qabul qilinmoqda. Adolatli boshqaruv uchun eng avvalo aniq hisob-kitob va ochiq ma'lumot kerak. Shu ma'noda raqamlashtirish mahalla faoliyati samaradorligini oshirmoqda.

Bugun mahalla faqatgina an'anaviy jamoat instituti emas, balki ijtimoiy siyosat, iqtisodiy rivojlanish va inson manfaatlarini ta'minlashda muhim mexanizmga aylanmoqda. Yoshlar bandligi, xotin-qizlar faolligi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi farovonligini oshirish masalalari aynan mahallada hal etilmoqda. Shu ma'noda mahalla instituti mahalliy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim funksional mexanizm sifatida shakllanmoqda. Iqtisodiy samaradorlik, avvalo, mahalla darajasida aholi bandligini ta'minlash, kichik tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. "Hokim yordamchisi – mahallada iqtisodiy islohotlarning drayveri" modeli asosida ish o'rinlari yaratish, aholini kasb-hunarga o'qitish hamda mikrocredit va subsidiyalarni manzilli taqsimlash mahalliy mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini bermoqda.

Shuningdek, hozirgi bosqichda mahalla orqali iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish resurslarning samarali taqsimlanishi ta'minlanadi. Mahalla ishonchli ijtimoiy kafolatlarni yaratib beradi [6, – B.135]. Mahalla kesimida ehtiyojlar va imkoniyatlarni aniq hisobga olish natijasida investitsiya va qo'llab-quvvatlash choralari maqsadli yo'naltirilmoqda. Mahallada ishlayman degan insonga sharoit yaratib berish iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Mahallaning iqtisodiy samaradorligi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarda, balki aholi daromadlari va turmush sifatida namoyon bo'ladi.

Mahalla instituti aholi bandligini ta'minlashda mehnat bozorining eng quyi, biroq eng aniq ma'lumotlarga ega bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla darajasida ishsiz aholi qatlamlari, kasb-hunar salohiyati va mehnat resurslarining real holati to'liq aniqlanadi. Hokim yordamchisi, yoshlar va xotin-qizlar faollari ishtirokida olib borilayotgan "fuqarobay" va

“xonadonbay” ishlash tizimi orqali aholini kasb-hunarga o‘qitish, ishga joylashtirish yoki tadbirkorlikka yo‘naltirish ishlari manzilli ravishda tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, mahalla aholi bandligini ta‘minlashda ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyani kuchaytiruvchi platforma vazifasini bajaradi. Ta‘lim muassasalari, mehnat organlari va tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda mahalliy mehnat bozori ehtiyojlariga mos ish o‘rinlari yaratilmoqda. Ish o‘rnini yaratish inson uchun eng katta ijtimoiy himoyalash vositasi hisoblanadi. Bunday masala mahallaning bandlik siyosatidagi o‘rni strategik ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mahalla instituti aholini ijtimoiy himoyalash tizimida eng samarali va insonga yaqin mexanizm sifatida shakllanmoqda. Mahalla darajasida aholining turmush sharoiti, daromad manbalari va ijtimoiy ehtiyojlari chuqur o‘rganiladi, bu esa ijtimoiy yordamni manzilli va adolatli taqsimlash imkonini beradi. “Oilabay” va “xonadonbay” ishlash tizimlari orqali kam ta‘minlangan, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz qariyalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar aniqlanib, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan nafaqa, moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlar aynan ehtiyojga qarab yo‘naltirilmoqda [7].

Shu bilan birga, mahalla ijtimoiy himoyani faqat moddiy yordam bilan cheklamay, aholining ijtimoiy faolligi va o‘zini o‘zi ta‘minlash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bandlikka ko‘maklashish, tibbiy va psixologik yordamga yo‘naltirish, ta‘lim va kasb-hunarga o‘qitish kabi chora-tadbirlar ijtimoiy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuvni shakllantiradi. Ijtimoiy himoya orqali moddiy ta‘minot yaxshilanadi, bundan ham muhimi inson qadri ta‘minlanadi. Mahallaning ijtimoiy siyosatidagi o‘rnini strategik ahamiyatga ega ekani ana shunday muhim omillar bilan belgilandi.

Mahalla instituti jinoyatchilikni oldini olishda jamiyatning eng quyi, biroq eng ta‘sirchan bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. Aholini yaqindan bilgan, har bir oila va shaxsning ijtimoiy muhitini yaxshi tushunadigan mahalla tuzilmasi huquqbuzarliklarning ildiz sabablarini barvaqt aniqlash imkonini beradi. Mahalla raisi, profilaktika inspektori, yoshlar va xotin-qizlar faollaridan iborat “mahalla yettligi” doirasida olib borilayotgan tizimli ishlar huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan individual profilaktik ishlarni tashkil etish, nizoli holatlarni jinoyat darajasiga yetmasdan hal etishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, mahallada ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashning profilaktik modeli shakllanmoqda. Yoshlar bandligini ta‘minlash, ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, aholining huquqiy ongini oshirish hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish mahallada jinoyat sodir etish ehtimolini keskin kamaytiradi. Jinoyatga qarshi kurashishda eng samarali yo‘l – uning oldini olish hisoblanadi. Mahallaning profilaktikadagi o‘rni alohida ahamiyatga ega.

XULOSA

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida mahalla instituti yangi mazmun kasb etdi. U ijtimoiy barqaror munosabatlardan tortib murakkab, bazan muammoli, stressli vaziyatlargacha, hatto ayrim risklar va murakkab sharoitlarni ham o‘z ichiga oladigan mikrosotsial voqelikni o‘zida to‘la aks ettirmoqda. Muammolar yechim topadigan va jamiyat taraqqiyoti boshlanadigan muhim tayanchga aylandi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mahalla instituti Yangi O‘zbekiston islohotlarida faqat ijtimoiy tuzilma emas, balki davlat siyosatini amalga oshirishning strategik mexanizmi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Ijtimoiy himoya, qashshoqlikni kamaytirish, bandlikni ta‘minlash va jamoatchilik nazorati kabi yo‘nalishlarda mahallaning roli tobora oshib bormoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

mahalla xodimlarining ilmiy va amaliy salohiyatini oshirish – boshqaruv, iqtisod va ijtimoiy tahlil bo‘yicha muntazam o‘quv dasturlarini joriy etish;

raqamli mahalla tizimlarini yanada takomillashtirish – ma‘lumotlarni tahlil qilish asosida prognozlash va qaror qabul qilish mexanizmlarini kuchaytirish;

mahalla darajasida tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish – ijtimoiy muammolarni ilmiy usullar asosida o‘rganish;

yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini mahallada qo'llab-quvvatlash – grant va imtiyozli kreditlarni mahalla kesimida maqsadli ajratish;

mahalla – davlat – jamoatchilik hamkorligini mustahkamlash – fuqarolar ishtirokini qaror qabul qilish jarayoniga keng jalb etish.

Adabiyotlar / Литература / References /

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 26.12.2025. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни // Ўзбекистон қонун ҳужжатлари тўплами. 2013, 17 (569)-сон. – Б. 9-10.
3. Bek Ulrich. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage, 1992.
4. Вебер М. Избранные произведения. – М., 1990.
5. In Uzbekistan, household incomes grew by 8.4 %. <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/64950-zbekistonda-a-oli-daromadlari-8-4-foizga-sdi-4>
6. Ишқуватов В. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг ривожланиш тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2024. – Б. 135.
7. Камбағалликни қисқартириш умуммиллий ҳаракатга айланади. https://president.uz/uz/lists/view/7537?utm_source
8. Manuel Kastells. The Rise of the Network Society, The Information Age: Economy, Society and Culture, Vol. 2. – Cambridge, MA; Oxford, UK: Blackwell, 1998 (second edition, 2000).
9. “Маҳалла еттилиги”нинг жисмоний ва юридик шахслар мурожаатлари билан ишлаш ҳамда аҳоли билан мулоқот маданиятига доир: амалий қўлланма / – Тошкент: Маънавият, 2024. – Б. 3.
10. Маҳалла – жамият ва давлатни бирлаштирувчи кўприк. <https://mahallas.uz/news/maalla-zhamiyat-va-davlatni-birlashtiruvchi-kprik>
11. Сорокин П.А. Система социологии. – Т. 2. – М.: Мысль, 1994.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000